

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

www.tongyulduzi.uz

Tong Yulduzi


2013-yil 7-oktabr
N:40 (66945)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

TO'GARAKLARGA BOY MASKAN



Ha, bolajonlar, Andijon viloyatidagi «Barkamol avlod» markaziga ana shunday ta'rif bersak, arziydi. Markazdagi ustozlar o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularni hunar o'rganishga yo'naltirishni o'z oldilariga asosiy maqsad qilib qo'yg'alar.

Davomi 2-betda

SAN'ATSEVARLAR QUVONCHI

Istiqlol tufayli kundan kunga chiroy ochib bora-yotgan shahar va qishloqlarimiz jamoli ko'zlarni quvnatadi, dillarni faxr va iftixor tuyg'ulariga to'ldiradi.

Buxoro viloyatining Olot tumani markazida qad rostlagan 150 o'quvchiga mo'ljallangan Musiqa va san'at maktabining yangi, ko'rkam binosini ko'rib, keksa-yu yoshning ko'nglidan ana shunday tuyg'ular kechgan bo'lsa, ajabmas. Ayniqsa, tumandagi yosh san'at ixlosmandlarining quvonchi cheksiz.

USHBU SONDA:

**O'QITILANISHNING
ODDIY QOIDALARI**
uni o'quvchi amaliy qo'yimgayimmi?

5-bet

**SAN'ATNING
SEHRLI OLAMI**

5-bet



MEHRIBON OY

8-bet

SHAHZODBEKNI TANIDINGIZMI?

Bugungi kunda aksariyat tengdoshlarimizning o'z sevimli mashg'ulotlari borligidan xursandman. Kimdir sport bilan shug'ullansa, kimdir san'atga qiziqadi, yana kimdir hunar o'rganadi.

Ana shunday tengdoshlarimizdan biri Shahzodbek Adhamov Glier nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyi o'quvchisi.

Davomi 7-betda





Gazetamizning o'tgan sonida andijonlik yosh iqtidor egasi Maftunabonu Mahmudjonovaning Venetsiya shahrida VI Xalqaro san'at festivali kundaligidan o'rin olgan «Orpheus in Italy» tanlovida faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritib qaytgani haqidagi xushxabarni o'qigandigiz. Bugun qay biringizga opa, qay biringizga tengdosh dugona, qay biringizga singil bo'ladigan bu qizimizning ijodiy faoliyati haqida batafsilroq to'xtalamiz.

MAFTUNABONUGA OMAD YOR BO'LSIN!

Dunyoning yigirma sakkizdan ziyod mamlakatidan to'rt yuzga yaqin yosh iqtidor sohiblari qatnashgan ushbu festivalda Maftunabonu o'zbek milliy qo'shiqlarimizdan «Dilxiroj»ni hamda ustozi Radim Bo'ronov tomonidan bastalangan rus tilidagi «Ёдàëüýñèèë àëü+èë» qo'shiqlarini ijro etib, faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

Endigina o'n uch yoshni qarshilagan Maftunabonu kichik yoshidanoq tuman, shahar, viloyat miqyosidagi

tanlovlarda qatnashib keladi. Shu kungacha respublika miqyosidagi ko'plab tadbirlar, jumladan, «Yangi avlod – 2012» bolalar ijodiyoti festivalining respublika bosqichi ishtirokchisi bo'lgan, «Bolaligim – poshsholigim» kabi ko'rik-tanlovida g'oliblikni qo'lga kiritgan edi.

U o'tgan yili Moskva shahrida 10 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'rtasida bo'lib o'tgan II xalqaro rus madaniyati kunlarining «Истоки русской культуры» festivalida «Валеньки» qo'shig'ini ijro etib, 3-o'ringa sazovor bo'lish orqali jahonning bunday nufuzli festivalida qatnashish huquqini

qo'lga kiritgan edi.

Yarim yil mobaynida Maftunabonu ustozlari Radim Bo'ronov hamda Zulxumor Qoraboyeva bilan birgalikda festivalga qizg'in hozirlik ko'rdi va o'z maqsadiga erishdi.

– Ushbu yutug'imni mamlakatimiz Mustaqilligining 22 yilligiga bag'ishlayman, – deydi yosh iqtidor egasi. – Yurt nomini dunyoga tanitish qanday ulkan baxt! Men shunday baxtga muyassar bo'lganimdan behad mamnunman. Kelgusida bundan-da yuqori cho'qqilarni egallashga va'da beraman...

Ushbu festivalda Maftunabonuni ko'plab xorijiy davlatlarda, jumladan, noyabr oyida Gruziya, dekabrda Litva, 2014-yilning martida Latviya va may oyida Daniyada bo'lib o'tadigan nufuzli xalqaro festivallarga taklif etishdi. Ayni kunlarda ham unga shunday takliflar internet orqali kelmoqda.

Bu iqtidorli qizimizga yanada yuksakroq parvozlar tilaymiz!

Umidjon MAMARASULOV,
«Jalaquduq hayoti» gazetasi muxbiri

TO'GARAKLARGA BOY MASKANI

(Boshi 1-betda)

Biz viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazi direktori Gulnora opa YO'LDOSHEVA bilan uchrashib, mazkur dargohning ayni kundagi faoliyati haqida quyidagilarni bilib oldik:

– Markazimiz binosi 2012-yilda zamonaviy uslubda ta'mirdan chiqarilib, o'quvchilar hamda ustozlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Bugungi kunda bu yerda pazandachilik, to'quvchilik, «Mohir qo'llar», kompyuter savodxonligi, rassomlik va dizaynerlik, haykaltaroshlik, konstruktorlik, notiqlik san'ati, milliy raqs va rus tili, ingliz tili singari jami 22 ta to'garak faoliyat yuritmoqda.

Buyuk ajdodlarimizning boy merosini o'rganish, markaz yoshlarini qadimiy obidalarimiz bilan joyindan tanishtirish maqsadida o'lkashunoslik yo'nalishi uslubchisi R. Yo'ldoshev va ingliz tili to'garagi rahbari N. Tojiddinov to'garakning eng faol o'quvchilari bilan birgalikda Andijon – Toshkent – Samarqand yo'nalishi bo'ylab sayohat uyushtirishdi.

To'garagimiz a'zolari viloyat va Respublika miqyosida o'tkaziladigan qator tadbir va ko'rik-tanlovlarda ham faol qatnashadilar.



Jumladan, «Yosh ijodkor» ko'rik-tanlovining Respublika bosqichida markazning «Kompyuter dizayni» to'garagi a'zosi Xurshidbek Kattabekov faol qatnashib, fotodizayn yo'nalishi bo'yicha 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Tengdoshidan orqada qolishni istamagan tasviriy san'at to'garagi a'zosi Jahongir G'ofurjonov «Yer yuzida tinchlik» mavzusidagi ko'rik-tanlovning Respublika bosqichida faxrli 1-o'rinni egalladi. «Yosh konstruktor» to'garagi a'zosi Abdullo Ismoilov esa «Yosh ixtirochi» ko'rik-tanlovining Respublika bosqichida 3-o'ringa sazovor bo'ldi.

Bunday ko'rik-tanlovlar uslubchilar orasida ham tez-tez bo'lib turadi. O'tkazilayotgan tanlovlar tuman va shahar uslubchilarini bir joyga jamlab, o'zaro tajriba almashishlarida yordam beradi. Yaqinda o'tkazilgan «Eng yaxshi uslubchi» ko'rik-tanlovida Andijon

shahar «Barkamol avlod» bolalar markazi uslubchisi Mahbubaxon Yusupova qatnashib, g'olib deb topildi va Respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Umumta'lim maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilarni markazdagi to'garaklarga jalb qilish maqsadida, yosh pedagog xodimlar hamda to'garak a'zolaridan iborat «Targ'ibotchi yoshlar guruhi» tashkil qilingan. Ular o'quvchilarimizning ijodiy ishlari, ko'rgazmalari, fotoalbomlari, slaydlari bilan umumta'lim maktablarida targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borishadi.

Farzandining qay darajada hunar o'rganayotganini bilish yoxud markaz to'garaklaridan biriga a'zo qildirish uchun maskanimizga tashrif buyurgan ota-onalar har bir to'garak xonasiga kirib, u yerdagi shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishishlari mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, markazga kelgan har bir o'quvchi o'z maqsadiga yetib, hunar o'rganish yo'lidagi dastlabki, shu bilan birga, muhim qadamlarini tashlaydi. Albatta, biror hunarni mukammal o'rganadi.

Ozoda TURSUNBOYEVA
yozib oldi

BIR BAYRAM BO'LDIKI...

Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 243-umumta'lim maktabida 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan «Sizga ta'zimamiz, aziz ustozlar!» nomli tadbir bo'lib o'tdi. Kechada o'quvchilar she'rlar aytib, qo'shiqlar kuylab, ustozlarini bayram bilan qutladilar. Ayniqsa, 9-«A» sinf o'quvchilarining chet tillarida tayyorlagan tabriklari, shu sinf o'quvchilari Madina Bo'rixonova hamda Dilfuza Abdullayeva ijro etgan raqslar guldastasi barchaga manzur bo'ldi.



Shu tariqa o'quvchilar ustozlariga yana bir bor ehtirom ko'rsatishdi. Bir bayram bo'ldiki, taassuroti tillarda qoldi.

O'z muxbirimiz

EZGULIKNING KECHI YO'Q

Sevimli gazetam «Teng yulduzi»ning ustoz va murabbiylarga bag'ishlangan maxsus sonini o'qib, behad quvondim. Chunki bu tabarruk insonlar harqancha e'zoz-u ehtiromga munosiblar. Tengdoshlarimning o'z ustozlari haqidagi maqolalarini o'qib, ularga bag'ishlangan she'r va badialaridan ilhomlanib, men ham qo'limga qalam oldim. Zero, bizning bilim dargohimizdagi o'qituvchilarimiz ham jonkuyar insonlar, o'z kasbining fidoyilari.



Jumladan, suratdagi ustozim – ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Nilufar opa Saidova haqida har qancha iliq so'zlar aytsek, oz. U kishi bizni adabiyot atalmish sirli bo'stonga olib kirdilar, murg'ak qalblarimizda she'riyatga havas uyg'otdilar, ijod qilishga undaydilar.

Ingliz tili o'qituvchimiz Jumagul opa Qurolovanadan olgan bilimlarimizni maktabimiz qoshidagi «Ingliz tilini o'rganamiz» to'garagida mustahkamlab boryapmiz.

Sinf rahbarimiz Shahnoza opa Sodiqovaning biz shogirdlariga bo'lgan mehrini, e'tiborini alohida ta'kidlashni istardim. Ikkinchi onamizdek bo'lib qolgan ustozimiz barchamizni o'z farzandlaridek ko'radilar, ta'lim-tarbiyamiz bilan jiddiy shug'ullanadilar. Onalar o'z farzandlariga

nimani ravo ko'rsalar, Shahnoza opa ham bizga barcha ezguliklarni tilaydilar. Yutuqlarimizdan quvonadilar, dono maslahatlarini ayamaydilar.

Ezgulikning kechi yo'q, deyishadi. Men ham barcha ustoz va murabbiylarimizni kuni kecha nishonlangan kasb bayramlari bilan muborakbod etaman. Ularga mustahkam salomatlik, ishlarida ulkan zafarlar tilayman.

Maftuna BOTIROVA,

Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi

34-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi



QALBIM QUYOSHI

Ustozlar... Nazarimda, o'qituvchi va murabbiylar zulmatni yorituvchi nurdir. Bu mehribon zotlar hayotning past-u balandliklarida qoqilmasligimiz, doimo olg'a qadam bosishimiz uchun bor kuch va g'ayratlarini ayamaydilar.

Ularni kuni kecha nishonlangan kasb bayramlari bilan sevimli nashrim orqali muborakbod etgim va bu mehdaryo, qalbi qaynoq insonlarga, ayniqsa, sevimli ustozim Gulnora opa Allayorovaga dilimdagi samimiy tilaklarimni bildirgim keldi:

Ustoz! Siz mening qalb quyoshim, onamdayin aziz va mo'tabar insonimsiz. Sizla hayot yo'llarim nurafshon. Menga hayotda o'z o'rnimni topishimda yordam berguvchi, haqni nohaqdan, oqni qoradan ajratishga o'rgatuvchi ulug' zotsiz.



Sizga va'da berib aytamanki, kelajakda bergan saboqlaringizni oqlab, komil inson bo'lib yetishaman.

Ulkan yutuqlarga erishganimda, eng quvonchli damlarimda, shuningdek, tushkun holatlarda ham Siz bergan o'gitlarga amal qilib, faqat va faqat olg'a qadam tashlayman.

Mashhura RAHMONQULOVA,
Urganch shahar Axborot va kompyuter texnologiyalari kasb-hunar kolleji o'quvchisi

Vatan, ishonchingni oqlagum o'zim, Senga armug'ondir dildagi so'zim. Sen mushfiq onasan, o'zing yolg'izim, Iqboling porlasin mangu barhayot, Sen borsan, qalbmida jo'sh urar bayot.

Bag'ringda har inson topar baxtini, O'g'lonlaring buzmas bergan ahдини, Senda ko'rar xalqim oliy taxtini, Farzandlaring bo'lar barkamol avlod, Vatanim, sen bilan kelajak obod.

Olislasam, zumba o'ylayman seni, Qo'shiq ohangida kuylayman seni, She'rim poyonida aytayin shuni: O'zing yagonasan, Mustaqil Vatan, Sen bilan tirikdir bu jon ila tan!

Maftuna MIRSOLIYEVA,
Buxoro pedagogika kollejining
1-bosqich o'quvchisi

FAN OYLIIGI YAKUNLANDI

Mana, geografiya faniga bag'ishlangan ilk fan oyliigi ham nihoyasiga yetdi. Barcha bilim maskanlarida bo'lgani kabi bizning maktabimizda ham fan oyliigi doirasida ko'plab tadbirlar tashkillashtirildi.

Ayniqsa, 9-sinflar o'rtasida o'tkazilgan «Tabiatni asraylik» nomli bellashuv juda qizg'in kechdi. Tadbir ishtirokchilarining ko'plab savollarga atroflicha bergan javoblari orqali geografiyaga, tabiatshunoslikka doir bilimlarimizni mustahkamladik. Barcha shartlarda zukkoligini namoyish

etib, g'oliblikni qo'lga kiritgan 9-«A» sinf o'quvchilarini maktabimiz rahbari Zulfiya opa Sarimsoqova «Faxriy yorliq» bilan taqdirladilar.

Bunday qiziqarli tadbirlar bizning fanlarga bo'lgan qiziqishimizni orttirib boradi. Keyingi fan oyliigida sinfimiz bilan faol ishtirok etishni niyat qildik.

Dildora ABDUHAMIDOVA,
Farg'ona viloyati,
O'zbekiston tumanidagi
10-maktab o'quvchisi



Yurtimizda biz yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar, yaratilayotgan sharoitlarni aytib ham, yozib ham tugatolmaymiz. Ayniqsa, maktab o'quvchilariga bilimlarini, ko'nikmalarini imtihondan o'tkazish imkonini beruvchi «Bilimlar bellashuvi»ning tashkil etilishi ayni muddao bo'lyapti.

BILIMLAR BELLA SHUVIDA SINALDIK



Men ham to'rt bosqichli bu tanlovda o'z bilimimni sinash maqsadida ona tili va adabiyot fanidan ishtirok etib, faxrli 1-o'ringa loyiq deb topildim, Diplom hamda Noutbuk kompyuterini qo'lga kiritdim.

Sinovdan so'ng, g'olib o'quvchilar Bo'stonliq tumanidagi «Quyoshli» oromgohida hordiq chiqardik. Bu yerda yurtimizning turli viloyatlaridan kelgan tengdoshlarim bilan tanishib, yangi do'stlar orttirdim. Bu yil hayotimning eng go'zal va unutilmas sahifasiga aylandi. Buning uchun men barcha ustozlarimdan minnatdorman.

Mohinur ODINAYEVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 63-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internatining 8-sinf o'quvchisi



Kuni kecha yurtimizda keng tantana qilingan – O'qituvchi va murabbiylarning umumxalq bayrami arafasida Andijon viloyati, Jalaquduq tumanidagi 10-umumta'lim maktabida bo'ldik. Maktabning ingliz tili fani o'qituvchisi Iroda Bakirova bizni iliq qarshi oldi. Ustozni bayram bilan qutlab, suhbatga chorladik.

O'QUYCHILARIMDAN ILHOM OLAMAN



– O'z bolaligingiz haqida gapirib bersangiz.

– Bolaligimda men ham beg'ubor orzular quchog'ida yashar edim. Maktabga ilk qadam qo'ygan kechlarimdan o'qituvchi fanlariga bo'lgan ishtiyoqim orta bordi. Quyi sinfda rus tilini mukammal o'rgandim. Yuqori sinfda esa ingliz tiliga mehr qo'ydim. Bu qiziqishim meni O'zbekiston davlat jahon tillari universitetiga yetakladi. Oliygo'hnini muvaffaqiyatli tamomlab, ushbu maktabda faoliyatimni boshladim. Hozirda ingliz tili fanidan o'quvchilarga saboq berib kelmoqdaman.

– O'quvchilaringizning qay jihatlarini qadrlaysiz?

– O'quvchilarimning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqiga tan bermasdan ilojim yo'q. Shuning uchun ham har bir darsimga alohida tayyorgarlik ko'raman.

– Siz faoliyat yuritayotgan maktabda chet tillarini o'rgatishga doir qanday ishlar amalga oshirildi?

– Joriy yildan boshlab barcha ta'lim muassasalarida bo'lgani kabi maktabimizning 1-sinf o'quvchilari ham «Kid's English» darsligi asosida o'qitilyapti. Shuningdek, o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan hamkorlikda ko'plab ochiq darslar tashkil etmoqdamiz. Ota-onalarga darslikdan foydalanish usullari haqida ma'lumotlar berib boryapmiz.

– Iroda opa, siz viloyat «Taraqqiyot» televideniya hamda faoliyat yuritir ekansiz. Aynan qanday ko'rsatuvlar tayyorlaysiz?

– Oynayi jahon orqali «Magic English» hamda «Homework» ko'rsatuvlarini tashkil etganman. «Magic English» dasturining 20 dan ziyod soni vodiy tomoshabinlariga taqdim etildi. Ushbu dasturda ingliz tilining dastlabki saboqlari o'rgatiladi. «Homework» ko'rsatuvi esa 2-sentabrdan efigra uzatila boshlandi. Unda 1-sinflar uchun chop etilgan darslikdagi mavzular yoritib boriladi. Bu esa ingliz tili tushunchasini endigina anglay boshlagan bolajonlarga qiziqarli tarzda dars o'tish usuli desam, yanglishmayman. O'quvchi tinglab, ko'rib hamda eshitib bilim olsa, ko'proq natijaga erishadi, deb o'ylayman.

– «Tong yulduzi» gazetasi muxlislariga tilaklaringiz.

– Ushbu gazetani barcha o'quvchilarim bilan birgalikda kuzatib boramiz. Ayniqsa, undagi «Chet tilini o'rganamiz» sahifasini katta qiziqish bilan o'qiyamiz. Gazeta o'quvchilariga tilagim faqat o'qib izlanishsin. Chunki bilim olish orqali zamon bilan hamnafas yashash mumkin.

– Maroqli suhbatangiz uchun rahmat! Yosh avlodga ta'lim berishdek sharafli kasbingizga muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Isfandiyor BURGUTOV
suhbatlashdi

Ilm baxt keltirar

Til bilish – madaniyat belgisi. Xalqimiz ta'biri bilan aytganda: «Til bilgan – el biladi». Bejizga ota-bobolarimiz qadim-qadimdan ikki-uch tilni o'rganishga intilishmagan.



MADANIYAT BELGISI

Bu ularga boshqa millat vakillari bilan erkin muloqot qilish, ular bilan tinch-totuv, hamkor-u hamjihat bo'lib yashash imkonini bergan. Ayniqsa, mamlakatimiz butun dunyo bilan keng ko'lamda hamkorlik qilayotgan bir paytda til bilish yanada muhimroq ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimizning 2012-yil 10-dekabrda «Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori biz yoshlarning xorijiy tillarni chuqur egallashimizda yana bir muhim omil bo'ldi. Ushbu Qarorning amaliy ijrosi sifatida bizning ilm dargohimizda ham o'quvchi-yoshlarning ingliz tilini mukammal o'rganishi uchun e'tiborga molik bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, yangi o'quv yilidan boshlab 1-sinf o'quvchilariga «Kid's English» darsligi, multimedia DVD hamda ustozlar va ota-onalar uchun mo'ljallangan uslubiy qo'llanmalardan foydalanib, mashg'ulotlar olib borilmoqda. Ingliz tili fani xonalarimiz bugungi kun talablari darajasida qayta jihozlandi. Ayni paytda 5–9-sinf o'quvchilari uchun «Biz ingliz tilini o'rganamiz», «Keling, inglizcha so'zlashaylik!» kabi to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Tengdoshlarimizning ushbu to'garaklarga qiziqishi katta. Endilikda ingliz tilini chuqur o'zlashtirish maqsadida u yoki bu ta'lim muassasasiga qatnashimizga hojat qolmadi.

Bundan tashqari, televideniya, mahalliy telekanallar orqali o'quvchi-yoshlar uchun xorijiy tillarni o'rganish bo'yicha berilayotgan ko'rsatuvlarni muntazam ko'rib boramiz. Ahamiyatli tomoni shundaki, mamlakatimiz ta'lim tizimidagi bunday o'ziga xos yondashuv biz yoshlarning chet tillarini mukammal o'zlashtirishimiz uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda.

Marjona MUHIDDINOVA,
Buxoro viloyati, Buxoro tumanidagi
3-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

– O'qituvchilar va murabbiylar bayrami arafasida «Hosil bayrami»ni o'tkazamiz, – dedi ustoz Dilorom opa Boymatova o'quvchilariga murojaat qilib.

HOSIL 2-«A»DA BAYRAMI

Vitaminning koni u,
Tuzlamaning joni u, – deya topqirlik bahsini boshlab yubordi Gulrux Sultonova. Ziyarak o'quvchilarga topishmoqning javobini topish qiyin bo'lmadi.

«Hosil bayrami»ga tayyorgarlik ana shunday qizg'in tarzda boshlangan edi. Bayramning quvnoq va mazmunli o'tishi uchun ustoz va o'quvchilar qatorida ota-onalar ham birdek harakat qilishdi.

Tabiatta oid plakatlar tayyorlashdi, she'r-lar yodlashdi, qo'shiqlar kuylashdi, raqsga tushib, tabiat haqida ko'plab ma'lumotlar to'plashdi. Gulrux Sultonova, Saidaxon Do'smatova, Asida Erkinova, Shahzod Hasanov, Nodirbek Rabbimov, Famuza Rahimova, Mirjamol Ayupov, Shahzoda Usmonova, Feruza Boboxonova, Ahror Tashanov kabi faol, izlanuvchan o'quvchilari bor ekan, ustoz Dilorom opa tadbir davomida aslo charchamadi, aksincha, g'ayratiga g'ayrat qo'shib, o'quvchilar bilan birga qo'shiq kuylab, raqsga ham tushdi.

Bayram bahonasida kichikintoylar tabiat bilan yaqindan do'stlashishdi, u haqida ko'plab ma'lumotlarni bilib olishdi. Jumladan, tabiatni nafaqat asrash, balki bezash ham insonning eng oliy burchi ekanligini, uni qanchalar asrasak, bizdan bor noz-u ne'matlarini ayamasligini bilib olishdi.

Bayram so'ngida o'quvchilarining shiori yangradi: «Dunyoni gullatishni tabiatdan o'rganaylik!»

OLMOS



Bu bayramning qanday o'tishini yaxshi bilgan poytaxtimizning Hamza tumanidagi 206-maktabning 2-«A» sinf kichikintoylari chug'urlashib ketishdi:

– Men olmani yaxshi ko'raman, olma bo'laman.
– Men shaftoli bo'laman.
– Men esa topishmoq aytaman:
Kiyimi qavat-qavat,
U bilan totli ovqat.



Sh. MUSAKOVA olgan suratlari



Deylik, ertalab maktabga shoshilib, nonushtani yaxshi qilmadingiz. Dars vaqtida gorningiz ocha boshladi-yu, ustozning saboqlari ham qulog'ingizga kirmay qoldi. Nihoyat, tanaffusga qo'ng'iroq chalindi. Maktab oshxonasiga kirib, issiq ovqat, somsa yoki singib pishgan biror yegulik tanovul qilib, issiq choy ichish o'rniga, bilim dargohingiz atrofida do'konlarda sotiladigan «kiriyeshki» yoki «xot-dog»lardan olib qaysiz. Ketidan odatdagidek gazli salqin ichimlik ichasiz.

Sizga juda yaxshi tanish bo'lgan bu holat har kuni takrorlanaveradi. Garchi bugun barcha ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ovqatlanishlari uchun yetarlicha sharoitlar yaratilgan bo'lsa-da, siz quruq yeguliklarni tanlaysiz, o'z sog'lig'ingiz haqida qayg'urmaysiz. Orangizda vaqtda issiq taom iste'mol qiladigan tengdoshlaringiz ham ko'p. Buva va buvjonlaringiz, ota-onangiz, o'qituvchi-yu shifokorlarning maslahatlariga quloq tutsangiz, siz ham bu holatga chek qo'yishingiz, to'g'ri ovqatlanish qoidalariga rioya qilishingizga ishonamiz.



O'VQATLANISHNING ODDIY QOIDALARI

Uni o'quvchi unutilib qo'ymayaptimi?

Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 41-maktab oshxonasida bo'lib, 6-«G» sinf o'quvchisi Muborak Hojimatovani suhbatga tortdik:

– Yaqinda maktabimizda shu masala yuzasidan o'tkazilgan ota-onalar majlisidan so'ng men oshxonada issiq taom yeyishga odatlandim. Maktabimiz oshxonasida har kuni turli xil mazali taomlar tayyorlanadi. Menga, ayniqsa, oshpaz opalarimiz pishiradigan qovoqli, kartoshkali somsalar, mevalardan tayyorlangan sharbat juda yoqadi. Ovqatlanishdan avval qo'llarimizni sovunlab yuvishimiz uchun ham sharoitlar yaratilgan, taklif va mulohazalarimizni bildirishimiz uchun esa maxsus quti tashkil etilgan.

Chindan ham ushbu maskanda o'quvchilarning tartibli va ozoda holda ovqatlanishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan bo'lib, taomlarning mazasi va sifatini ularning yoqimli, xushbo'y hididan ham bilish mumkin.

Ammo maktab rahbari Gulnoza opa

Muzaffarovani bir muammo o'yantirar ekan:

– Ko'pchilik o'quv maskanlari atrofida «minimarket» kabi turli savdo rastalari mavjud. Biz istaymizmi, yo'qmi,



ZUHRA olgan suratlar

o'quvchilarning

ko'pchiligi o'sha yerdan turli pechenye, kiriyeshki kabilarni sotib olishadi. Ularga bu ishlarining salbiy oqibatlarini tushuntirishga-ku erishayapmiz. Ammo ba'zi ota-onalarning: «Bolalarning maktab oshxonasida ovqatlanishlari shartmi?» degan savollariga nima deysiz? Demak, avvalo, kattalar orasida tushuntirish ishlarini olib borishimiz lozim, deb o'ylayman.

Bu borada bizga shifokor-mutaxassislar yordam berishsa, ajab emas. Bolalarimizning sog'lom bo'lib ulg'ayishlarida to'g'ri ovqatlanishning ahamiyati haqida Shayxontohur tumanidagi 46-oilaviy shifoxonaning o'smirlar shifokori Muborak opa Umarova quyidagilarni gapirib berdilar:

– Bolalarning darslarni yaxshi o'zlashtirishlari ertalab yaxshi nonushta qilishlariga bevosita bog'liqligi tibbiyotda allaqachon o'z isbotini topgan. Ikkinchi nonushta ham o'smir organizmining kun davomida yetarlicha oqsil, uglevod va yog'lar bilan ta'minlanishida muhim

sanaladi. Ayniqsa, kuz oylarida o'quvchilar shamollab qolmasliklari uchun yetarlicha suyuqlik – issiq choy, turli sharbatlar, na' matak damlamalarini ko'proq iste'mol qilishlari lozim. Shoshilib quruq buterbrodlarni tanovul qilish yaramaydi. Bunda taomning hazm bo'lishi qiyinlashib, gastrit – oshqozon yallig'lanishiga olib keladi. Shuningdek, vaqtda ovqatlanmaslik, och qoringa saqich chaynash ham oshqozon kasalliklarini keltirib chiqaradi. O'z vaqtida, yangi va sifatli taom tanovul qilish kerakligi kabi to'g'ri ovqatlanishning oddiy qoidalarini esa o'quvchilar yaxshi bilishadi, nazarimda. Faqat ularga rioya qilish zarur!

Aziz o'quvchilar! Siz sog'lom bo'lib voyaga yetishni va kelajakda katta ishlar qilishni niyat qilasiz-a? Albatta, deysizmi?! Unda yuqoridagi mulohazalarimizdan to'g'ri xulosa chiqarasiz, degan umiddamiz.

Sayyora QODIROVA

Siz kutgan uchrashuv

Yaqinda oynayi jahon orqali namoyish etilgan «Yodgor» milliy seriali tomoshabinlar tomonidan juda iliq kutib olindi. Ayniqsa, bosh qahramon – Yodgor obrazini jonlantirgan aktyor Kamolbey Bobonazarovning ijro mahorati ko'pchilikda katta taassurot qoldirdi. Biz yosh, umidli aktyorimiz bilan uning bolalik qillari xotiralari, orzulari haqida suhbatlashdik.

SAN'ATNING SEHRLI OLAMI

– Kamolbey aka, avvalo, san'at olamiga kirib kelishingiz haqida suhbatlashsak.

– San'atkorlar oilasidan bo'lganim uchunmi bolaligimdan san'atga mehirim bo'lakcha edi. Bu havasni payqagan ota-onam 1-sinfda o'qib yurgan kezlirim musiqa maktabiga yetaklab borgandilar. U yerda ustozlarimdan akkordeon cholg'u asbobini chalishni o'rgandim. Musiqa bo'yicha saboqlar, maktabdagi darslar, uy vazifalari bisyorligidan ko'p vaqtim o'z ustimda ishlash, dars tayyorlash bilan o'tar edi. Bo'sh vaqtlarimda oynayi jahon orqali namoyish etiladigan bolalar filmlarini tomosha qilish jon-u dilim edi. Ayniqsa, ularda rol ijro etgan tengdoshlarimga havas bilan qarardim. Murg'ak qalbmimdagi bu havas bora-bora maqsadga aylandi va men kelajak hayotimni san'atning sehrli olami bilan bog'lashga ahd qildim.

– Bolalikda fe'l-atvoringiz qanday bo'lgan? Do'stlaringiz ko'pmidi?

– Tabiatan og'ir-vazmin, lekin biroz qaysar bo'lganman. Agar o'z oldimga biror-bir maqsad qo'ysam, unga, albatta, erishishga intilganman. Do'stlarim haqida gapirsam, ular juda ko'p bo'lgan. Lekin o'zim ishon-gan, qattiq suyangan do'stlarim Sherali va Dilshod edi. Bolaligimning eng shirin damlari ana shu do'stlarim bilan birga o'tgan.

– Ko'pchilikka manzur bo'lgan

«Yodgor» serialidagi rolingizni ijro etishda qiynalmadingizmi?

– Har bir rol aktyordan mahorat, sabr-toqat va katta kuch talab qiladi. Ijro etayotgan rolingizga o'zingizni baxshida etmas ekansiz, u tomoshabin ko'nglidan joy ololmaydi. Shu bois, men filmda rol o'ynamayman, balki u bilan yashayman.

«Yodgor» serialidagi obrazim haqida gapirar ekanman, undagi fe'l-atvor o'zimda mujassamligi uchun aytarli qiyinchiliklarga duch kelmadim. Tinimsiz izlanishlar, qolaversa, ustoz san'atkorlarning ko'magi bilan ana shu filmda obrazni yarata olganimdan bag'oyat mamnunman.

– Ushbu serialning ahamiyatini qanday baholaysiz?

– Bu film xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun katta saboq bo'ladi, deb o'ylayman. Chunki unda sof muhabbat, Vatanga, ota-onaga mehr, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi insoniy fazilatlar, shuningdek, sog'lom turmush tarzi va ustoz-shogird an'analari targ'ib etilgan.



– Agar aktyor bo'lmaganingizda, qanday kasbni tanlagan bo'lardingiz?

– Bilmadim, o'ylab ko'rmagan ekanman. Yoshligimdan san'at sohasini tanlab, Toshkent davlat san'at va madaniyat institutida tahsil olganman. Boshqa sohada o'zimni tasavvur ham eta olmayman.

– Aktyor bo'lish ishtiyoqidagi yoshlarga tilaklaringiz...

– Bugun yurtimizda yosh avlodning o'qib-izlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Istagim – yoshlarimiz ana shu imkoniyatlardan unumli foydalanib, puxta bilim olishsin, maqsad sari intilishsin.

– Mazmunli suhbatingiz uchun tashakkur! Sizga ijodiy parvozlar tilab, yangi-yangi milliy seriallar orqali uchrashishga umid qilib qolamiz.

Toshkent shahar «Barkamol avlod» bolalar ijodiyot markazi a'zosi
Ilmira SAGDULLAYEVA

Isto'dodli shoir O'roq Said Qashqadaryo viloyatining Hisor tog'lari orasida joylashgan olis Zarmast qishlog'ida tavallud topgan. Bir necha yillar mobaynida o'quvchilarga ona tili va adabiyot fanidan saboq bergan ijodkor ustozimiz Siz bolajonlarga atab ko'plab she'rlar qoralagan. Ana shunday quvnoq she'rlaridan jamlangan «Jog' lolasi», «Kiyik dara» nomli kitoblari hamon o'quvchilar qo'lidan tushmay kelyapti.

Shuningdek, kattalarga bag'ishlangan «Go'zal vasfi», «Qashqadaryomsan» kabi she'riy to'plamlari ham o'z o'quvchilarini topgan.

Bugun shoirimizning sho'x, o'ynoqi, ohangdor she'rlaridan Sizni ham bahramand etishni istadik.

OLISLARDAN YANGRAGAN NAVO

KO'PKARI



TOSHBAQA

– Hoy, toshbaqa, toshbaqa,
Ketayapsan qayoqqa?
Yasanibsan binoyi,
Buncha to'ning chiroyli?!

– Ho' do'ngning u betida
Do'stlar kutar intizor,
Kuzda bundan jo' nasam,
Yetaman erta bahor.



O'rtada katta maydon,
Sof bedovlar jamuljam.
Jiyron toyimni minib,
Tomosha qildim men ham.

Bobom bunda bakovul,
Ko'krak ochiq – yelvagay,
Uloqni tashlab yerga,
Qoch, – der, – bosar, bolakay.

Uchqur otlar shamoldek
Atrofimdan o'tadi.
To'rt pochani qirq kishi
Hayyo-hayt deb tortadi.

Payt poylab qora bayir
Shamoldek yelib ketdi.
Ustidagi pahlavon
Uloqni ilib ketdi.

Yosh qalbimda ushbu dam
Uyg'ondi ajib havas.
Ulg'ayib, kuchga to'lib,
Bo'lgum shunday chavandoz!



CHUCHVARA

Quygan kabi satillab
Yomg'ir yog'ar shatirlab.
Hamma qochgan panaga,
Issiqqina xonaga.

Tunuka tom chakirlar,
Nog'oraday taqirlar.
Tarnovdan suv sharillab
To'lib oqar ariqlar.

Tomchilarni tutvolib,
Cho'lp-cho'lp qilib, yutvolib,
Qo'lga-qo'l tegmay sira
Hovuz tugar chuchvara.

O'roq SAID,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

YO'LINI TOPIB OLDI

(Hikoya)

Bolalar sho'x-shodon qiyqiriqlar bilan Milliy bog' darvozasiidan kira boshlashdi.

– Yana bir bor takrorlayman, shovqin-suron ko'tarmanglar, tartib-intizom saqlansin! – deya muallima Elmira opa o'quvchilarini birma-bir ko'zdan kechira boshladi.

Shu payt bexosdan elektr simini ushlab olganday a'zoi badani jimirlab, tizzalari bo'shashib ketdi: bir o'quvchisi yo'q!

«Bo'lishi mumkin emas», xayolidan o'tkazdi muallima tevarakka jonsarak alang-larkan. So'ng, o'quvchilarini yana qayta nazardan o'tkazdi, hijjalab-hijjalab sanadi. Ha, chindan ham bir bola yo'q.

«Nusrat ko'rinmayapti, Karamxonov Nusrat», xayolan bo'zlab yubordi muallima. Ko'z oldi tinib, boshi aylanib ketdi. Xayajondan tomog'i quruqshab qoldi. Xayriyat, qo'shni sinf rahbari – yosh o'qituvchi Shahlo Salimova yonida ekan.

– Elmira opa, sizga nima bo'ldi? – deb so'radi xavotirlanib, – rangingiz oqarib, bezovtalanib qoldingiz?

– Shahlo, mening bir o'quvchim ko'rinmayapti, Nusratbek.

Yosh muallima ham sarosimalanib u yon-bu yonda ko'z tashladi, o'zicha bolalarni ko'zdan kechirgan bo'ldi.

– Ha, o'sha o'quvchingiz yo'q, – dedi u ham bo'shashgan ko'yi.

Ustoz faol o'quvchilaridan ikki-uch nafarini yoniga chaqirib, Karamxonovni surishtirdi. Biroq, ular ham jo'yali gap ayitishmadi. Javdirabgina yelka qisib qo'yishdi.

– Shahloxon, – dedi muallima, – Nusrat, menimcha, muzeyda qolib ketgan. Iltimos, siz bolalarga qarab tursangiz, men tezgina o'sha yoqqa borib kelay.

– Xo'p, Elmira opa, shunday qilganingiz ma'qul.

Muallima shosha-pisha kirakash mashinalardan

birini to'xtatib, hovliqan ko'yi o'zini orqa o'rindiqqa tashladi.

Elmira Zufarovna – kuyinchak, o'z kasbiga mehri baland muallima. Quruq dastur bo'yicha naridan beri dars o'tishni o'ziga ep ko'maydi. O'quvchilarini goh u, goh bu muzeylarga, tarixiy joylarga tez-tez sayohatga olib boradi. Bu shanba ham xuddi shunday bo'ldi. Shahloxon ikkalasi maslahatlashib, bolalarni Markaziy xiyobonga olib chiqishgandi. Avval Sohibqiron Amir Temur haykalini z i y o r a t qilishdi, so'ng yangigina bunyod etilgan

Majlislar Saroyini borib ko'rishdi. O'quvchilar ko'zidagi hayrat, hayajon ustozning zavqiga zavq, g'ayratiga g'ayrat qo'shadi. U erinmay sodda va qiziqarli tarzda bolakaylarga ma'lumotlar berardi. Ulug'vor Saroy bilan tanishishgach, muallimalar Temuriylar tarixi muzeyiga yo'l boshlashdi. Bolalar chug'urchuqlardek chug'urlashib, ko'rganlarini, eshitganlarini muhokama qilishardi.

– Endi Milliy bog'ni sayr etib, dam olamiz! – deya ustoz bolalarni bu yerga boshlab kelgandi.

Afsuski, kutilmaganda mana bunday tashvish oyoq ostidan chiqib qoldi.

«Hammasiga o'zim aybdorman, o'zim, – deya o'yarladi muallima ich-etini yeb, – bolalarni ko'zdan qochirdim. Nusrat yo muzeyda qolib ketgan yo avtobusdan tusholmay qolgan...»

Nusrat Karamxonov – a'lochi o'quvchilardan. Hamma narsaga qiziqadi. Mana shu sayr chog'i ham ustozini holi-joniga qo'ymay goh u, goh bu narsani so'rab charchamadi.

Ular bir zunda Markaziy xiyobonga yetib kelishdi. Muallima yo'lka bo'yidagi o'rindiqda qandaydir kitobni varaqlab o'tirgan yigitga yuzlanib:

– Kechirasiz, ukajon, shu atrofda kichkina bir bolaga ko'zingiz tushmadimi? – deb so'radi.

– Qanaqa bola?

Muallima shosha-pisha Nusratning ta'rifini keltirgan bo'ldi.

– Ha, ko'rdim, – dedi talaba bir zum o'ylanib turgach, – muzeydan chiqib, Sohibqiron Amir Temur haykali yoniga bordi, so'ng mana bu Saylgoh ko'chasi bo'ylab ketdi.

– Rahmat, – dedi muallima yigit ko'rsatgan tarafga yugurib.

U atrofda diqqat bilan ko'z yugurtirgan ko'yi ko'chaning narigi boshigacha bordi. Biroq, Nusratdan darak yo'q. So'ng, avtobuslar bekati tomon yurdi.

– Kechirasiz, opa, – dedi muallima gazeta-jurnallar sotuvchi ayolga yuzlanib, – shu atrofda bir bolakayga ko'zingiz tushmadimi?

Ayol ham bir zum o'ychan turib qoldi. So'ng, yuzlari yorishib, dedi:

– Ko'rdim, qorachadan kelgan, ko'zlari katta-katta bolami?

– Ha...

– U bola 37-avtobusga o'tirib ketdi.

Muallimaning yuragi quvonchdan hapriqib ketdi. «37-avtobus biz tomon yuradi-ku! Demak, u uyga kotibdi!»

Lekin muallima baribir xotirjam tortmadi. Bir mashinani to'xtatib, mahallasi tomon oshiqdi.

U o'tirgan mashina ko'p o'tmay tanish mahallaga burildi. Shu payt muallima Nusratni ko'rib qoldi! U sho'xchan irg'ishlab, maktab hovlisiga kirib borardi.

Elmira Zufarovna mashinadan tushgan zahoti beixtiyor qichqirib yubordi:

– Nusrat! Nusratjon!

Bola yalt etib tovush kelgan tomon qaradi. Yuz-ko'zlariga quvonch qalqib chiqdi.

– Ustoz!

Ular bir-birlariga peshvoz yurishdi.

– Kechiring, ustoz, muzeyda adashib qolib ketibman.

– Sen meni kechir, o'g'lim, – dedi Elmira Zufarovna

Nusratning yelkalaridan qucharkan. So'ng, sekin so'radi:

– Sen qanday qilib bekatga chiqib olding?

O'quvchi ustoziga xuddi ajablangandek qaradi:

– Ustoz, o'zingiz kimki Sohibqiron Amir Temur ko'rsatgan yo'ldan yursa, sira adashmaydi, degandingiz-ku! Men ham avval bobomiz haykali yoniga bordim. Qarasam, ulug' bobomiz qo'l cho'zib, yo'l ko'rsatayotgan ekanlar. O'sha tomonga qarab yurdim. Adashmabman, mahallamizga keladigan avtobus o'sha joyda to'xtar ekan.

– Barakalla, bolam, juda to'g'ri qilibsan, – deya muallima Nusratni mahkam bag'riga bosdi...

AKALARI IZIDAN...

Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi Osiyo chempionatining saralash musobaqasini birinchi o'rinda yakunladi.



Osiyo futbol konfederatsiyasi shafeligida o'tkazilayotgan qit'a chempionatining saralash musobaqalarida Osiyoning 41 mamlakati yosh futbolchilari o'n guruhga bo'lingan holda o'zaro raqobatlashdi.

Saralash musobaqasining «B» guruhi o'yinlariga Toshkent shahri

jamoasi darvozasiga javobsiz to'qqizta to'p kiritdi.

Guruhdagi ikkinchi bahsda ham yurtlarimiz Yaman o'smirlariga qarshi maydonga tushdi. Futbolchilarimiz ustunligida o'tgan bellashuvda 4:0 hisobi qayd etildi. Raqib jamoa darvozasiga kiritilgan gollardan ikkitasi Jonibek Ko'chimov,

mezbonlik qildi.

Tajribali murabbiy Temur Olimxo'jayev shogirdlari dastlabki uchrashuvda Falastin o'smirlar terma

qolganlari Ma'ruf Jo'rayev hamda Shohrux Mahmudhojiyev hisobiga yozildi – 4:0.

«B» guruhidagi har ikki uchrashuvni ham o'z foydasiga hal qilib, birinchi o'rinni egallagan jamoamiz 2014-yilning 18-sentabr – 1-oktabr kunlari Tailandda o'tkaziladigan Osiyo chempionatining final qismida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi.

Bo'lajak qit'a chempionatida Osiyoning eng kuchli 16 terma jamoasi sovrinli o'rinlar va 2015-yili 17 yoshgacha futbolchilar o'rtasida o'tkaziladigan jahon chempionatiga beriladigan to'rt yilgan birini qo'lga kiritish uchun o'zaro raqobatlashadi.

XAPKIDO YANADA OMMALASHMOQDA

Poytaxtimizdagi «Jar» sport-sog'lomlashtirish majmuasida Sharq yakkakurashi turi – xapkido bo'yicha bolalar, o'smirlar va yoshlar o'rtasida o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida 100 nafardan ziyod sportchi g'oliblik uchun kuch sinashdi.



Mazkur chempionat O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Sharq yakkakurashlari, jang san'atini rivojlantirish markazi va mamlakatimiz Xapkido federatsiyasi tomonidan yoshlarni sportga keng jalb etish, iqtidorli sportchilarni saralash maqsadida tashkil etildi.

O'z yosh toifasida Sanjar Isroilov, Firdavs Toirov,

Temurmaliq Rasulov, Shuhrat Jamshidov, Abdulaziz Ahmadiyev, Bunyod Nosirov, Nozim Olimov, Temur Boltayev, Artyom Rukovichnikov, qizlar o'rtasida Dilnoza Ibrohimova, Nigina Po'latova, Mehrangiz Najmiddinova va Mohimbonu Azimova kabi sportchilar shohsupaga ko'tarildi.

Shoh MUHAMMAD

SHAHZODBEKNI TANIDINGIZMI?

(Boshi 1-betda)

Shahzodbek skripka yo'nalishida tahsil olish bilan birga, mana to'rt yildirki, «Marvarid» ashula va raqs guruhiga qatnashib kelmoqda. Shahzodbekning suratiga qarab, uni «Zumrasha» hajviy kinojurnalida ham ko'rganingizni eslagandirsiz?! Hozirda NTT kanali orqali namoyish etilayotgan «Bolalar shaharchasi» ko'rsatuvida boshlovchilik qilish bilan birga, sportning suzish turi bilan ham shug'ullanayotgan do'stimizga juda havasim keldi.



– Kelajakda qay bir kasbni tanlashimizdan qat'iy nazar, sport bilan muntazam shug'ullanishimiz lozim, – deydi Shahzodbek. – Chunki sportning barkamol avlod kamolotida tutgan o'rni beqiyos. Men sport tufayli barcha sevimli mashg'ulotlarim bilan shug'ullanib kelyapman. U menga tetiklik, kuch-quvvat bag'ishlash bilan birga, o'zimga bo'lgan ishonchimni o'rtiryapti.

Serqirra ijodkor tengdoshimning

so'zlarini tinglar ekanman, buvi-jonimning ko'p takrorlaydigan o'g'itlari yodimga tushdi. Chindan ham bugun bizning imkoniyatlarimiz juda keng, bolalikdanoq puxta bilim olishimiz, bir emas, bir nechta hunarlarni egallashimiz mumkin. Nima dedingiz, aziz tengdoshim?!

Barno MAMAJONOVA,
Toshkent shahridagi
59-ixtisoslashtirilgan
umumta'lim maktabining
5-«B» sinf o'quvchisi

Bu qiziq!



Aziz o'quvchilar, dunyodagi tengdoshlaringizning qanday maktablarda tahsil olishlari sizni qiziqtirsa kerak-a? Albatta, qiziqtiradi, deysizmi?! Unday bo'lsa, 2000-yilda «Ginnes rekordlar kitobi»ga kiritilgan «Dunyodagi eng katta maktab» bilan tanishing.

DUNYODAGI ENG KATTA MAKTAB



25 ming o'quvchini o'z bag'riga olgan City Montessori School (CMS) dunyodagi eng katta maktab bo'lib, Hindiston janubidagi Laknau markazida joylashgan. Ushbu maktabga 1959-yili Jagdish Gandi va uning rafiqasi asos solgan. O'sha vaqtda bu maktabda 5 nafar o'quvchi tahsil olar edi. Keyinchalik ko'plab ota-onalar farzandlarining mazkur ilm dargohida o'qishiga qulaylik yaratish uchun o'z ish va turar joylarini maktab yaqiniga ko'chirishga harakat qilishgan. Hozirgi kunda maktab alohida binolar, katta bog'lar, favvoralardan iborat kattagina o'quvchilar shaharchasiga aylangan. E'tiborlisi, har bir binoda o'rtacha 1250 nafar o'quvchi ta'lim oladi.

Gandi maktabida nasroniy, musulmon kabi boshqa dinlarga mansub o'g'il-qizlar bir oila farzandidek bilim olishadi. Shuningdek, o'quvchilar ta'lim-tarbiya bilan birga madaniyatlardan ham saboq oladilar. Maktabning no'anaviy jihatlaridan yana biri – yozgi ta'tilda bu yerda «Xalqaro bolalar oromgohi» ochiladi.

Bolalarni sabr-qanoatlilik, tinchliksevarlik kabi umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash va yana ko'plab xizmatlari uchun City Montessori School YUNESKOning mukofotiga sazovor bo'lgan.

Rus tilidan Nigora
ABDUNAZAROVA tarjimasini



MEHRIBON OY

Keling, ertak o'qiyimiz!

Juda qadim zamonlarda, ming yil, ehtimol, o'n ming yil avval Yer ham, osmondagi Oy ham juda yosh bo'lishgan ekan. Yerdagi hayvonlar va o'simliklar kam bo'lgan. Oy har kecha ko'kdan turib, butun borliqni kuzatarkan. Bir kuni Oy Yerdagi gullar, daraxtlar, hayvonlar, qo'yingki, barcha mavjudot yolg'izlikdan g'amga botganini ko'rib, qattiq ranjibdi. Yerdagi do'stlariga yordam berishni, ularni yolg'izlik azobidan xalos etish haqida o'ylay boshlabdi.

Tun mahali Bo'ri uvlagancha debdi:

– Qani endi birorta do'stim bo'lsa-yu, u bilan suhbatlashsam, birgalikda miriqib o'ynasam.

Shunda Oy unga mehr bilan jilmayib:

– Ey Bo'ri, ko'pam nola chekaverma. Kel, ikkimiz do'st bo'lamiz, birga o'ynaymiz, – debdi va u bilan shirin suhbat quribdi.

Shu payt Oy Yerning yana bir burchagida Boyo'g'li yolg'iz o'zi daraxt shoxida o'tirib, xuddi Bo'ri kabi g'amgin qo'shiq kuylayotganini eshitibdi va:

– Ey Boyo'g'li, ko'p aziyat chekma, men senga do'st bo'lamen, har kecha birga suhbatlashaman, – debdi va o'z nuridan bir bo'lagini Boyo'g'liga uzatibdi.

So'ngra, sal narida Tulki bilan Olmaxonning ovqat izlab ketayotganini ko'rib qolibdi. Yon-atrof qorong'i bo'lgani uchun Oy bor qudrati bilan ularning yo'lini yoritib debdi:

– Ey do'stlarim, men o'z nurlarim bilan yo'llaringizni yoritaman. Tong otguncha sizlar bilan birgaman.

Shu yaqin atrofda baland Archa daraxti bo'lib, u ham yolg'izlikdan aziyat chekarkan. U ham shoxlarini silkitib debdi:

– Qani endi yonimda yana bir Archa daraxti bo'lsa-yu, u bilan yaqin do'st tutinsam. Ko'nglimni unga yozsam.

Oy o'z nurlari bilan Archaning shoxlarini silab debdi:

– Ey Archajon, mana men sening do'stingman.

Endi har kecha sen bilan diydor ko'rishib, tonggacha miriqib suhbatlashaman.

Oy shunday deya nurining yana bir bo'lagini Archaga uzatibdi.

Bir kecha Bo'ri osmonga qarab, Oyning ozib ketganidan hayron bo'libdi. Boshqalar ham uning bu holidan qattiq aziyat chekib, Oyga yordam bermoqchi bo'lishibdi.

Shunda Oy «Bezovta bo'lmanglar, siz kabi do'stlarim bor ekan, mening nurlarim hech qachon tugamaydi», deya qadrdonlarini tinchlantiribdi. Lekin tunlar o'tgan sari avvalgidan-da kichiklashib, do'stlarini yanada qattiq xavotirga solibdi.

Bir kecha hayratomuz voqea ro'y beribdi. Oy biroz to'lishib, o'z nurlari bilan Yerni yanada yorqinroq yorita boshlabdi. Keyingi tunlari u yana ham kattalashib,



avvalgi holiga qaytibdi. Do'stlari bundan juda-juda xursand bo'lishibdi.

Oy yana yangi-yangi do'stlar izlab, o'z nurini ularga tortiq etaveribdi. Chunki u barchaga mehr ulashishni ich-ichidan xohlar ekan-da.

Oradan ko'p zamonlar o'tdi, Oy ham ancha ulg'ayib qoldi, ammo haligacha barchaga mehribon. U hozir ham do'stlariga o'z nurini ulashib kichiklashar, ularning mehr-muhabbatidan yana o'z holiga qaytaverar ekan.

Fors tilidan

Bahriddin TURG'UNOV tarjimasini

OLMALI PIROG

Kerakli masalliqalar:


4 dona tuxum, 1 stakan shakar, 1 stakan un, 4 dona o'rta katta katalikdagi olma, ozgina vanilin, razrixlitel.

Tayyorlanishi:

4 dona tuxum oqi sarig'idan ajratiladi va shakar bilan birgalikda ko'pirtiriladi. So'ngra, vanilin, razrixlitel, un solib, bir tusli massa holiga kelguncha aralashtiriladi. Po'sti artilgan olmalar o'rta katta katalikda to'g'raladi va massaga qo'shib aralashtiriladi. Maxsus qolipga qog'oz solib, 180-200 ° gacha qizdirilgan gaz pechida taxminan 45 daqiqa davomida pishiriladi. Sovigach,

ustiga qand u p a s i sepiyadi.

Yoqimli ishtaha! NARGIZA tayyorladi



CHUMOLILAR «OSHPAZI»

Maydonchada o'ynayotgan to'rt yoshli Robiya ini yonida g'imirlab yurgan mitti chumolilarga qiziqib qoldi. Qarasa, ular tinim bilmay ishlashyapti, don-dunmi, xas-cho'pmi, inlariga sudrab kelishyapti. «Bechoralar, charchab qorinlari ham ochib ketgandir», deya ularga rahmi keldi Robiyaning. So'ngra:

– Hoy chumolilar, hozir sizlarga shirin ovqat pishirib beraman, – dedi.

Tayoqcha olib, tuproqni aralashtira boshladi. Keyin jajji qo'llari bilan tuproqni chumolilarning ini yoniga surdi-da, ularni kuzatdi.

Chumolilar tuproq ustidan birin-

ketin o'rmlab, yana cho'p tashishda davom etishdi. Robiya, pishirgan ovqatim ularga yoqmadi, deya xafa bo'lib uyiga kirdi.

Oyisi uning qo'llarini yuvayotganda:

– Oyijon, chumolilarga tuproqdan ovqat pishirib bergandim, yeyishmadi. Ertaga birga ovqat pishiraylik. Sizniki mazali bo'ladi-da, xo'pmi, oyijon, – dedi munchoqdek ko'zlarini javdiratib.

Shahnoza KARIMOVA



TEZ AYTISHLAR


Tongi toza havo.
Tanangga koni davo.

Shaboda shamolga aylandi.
Shamol shaharga shaylandi.

Katta ariqdan ko'p suv keladimi,
Ko'p suv katta ariqqa keladimi?

Chaman chechaning chaqqongina
chevarasi chevar qiz bo'libdi.

Ravshan ISOQOV



Gazetaning 39-sonida berilgan «TA'LIM-TARBIYA FIDOYILARI» KROSSVORDING JAVOBLARI:

Shakl harflaridagi kataklarga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha. Zanjir holidi: 1. O'qituvchi. 2. Ibrat. 3. To'garak. 4. Kitob. 5. Behbudiy. 6. Sharafiddinov. 7. Vohidov. 8. Vergul. 9. Lavh. 13. Nodira. 14. Arastu. 15. Ulug'bek. 16. Kollej. 17. Jurnal. 18. Lotin. 19. Zokirov. 20. Vatan. 21. Notiliy.

Eniga: 10. Jomiy. Bo'yiga: 11. Maktab. 12. Beruniy.

MUAMMONOMA:

Kali so'zlar: 1. Sa'diy Sheroziy. 2. Samar Bonu. 3. Til.

Hikmat: Shunday edi doim bilim, tarozu, Ustoz ta'limidan yashnadi orzu.

8

7-oktabr 2013

Bosh muharrir
Feruza JALILOVA

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi
Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumati
qarashi bo'lgan xalqaro xayriya jam'asmi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAIONOV,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Zikrilla TESHABOYEV,
Sobitxon TURG'UNOV

Navbatchi
muharrir
Dilorom
HOTAMOVA
Rassom
Feruza
MATYOQUBOV
Dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV
Musahhih
Nargiza
ABDULLAYEVA

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 46871
Buyurtma N: J 8212